

**PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILAR  
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQARO  
BAXOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISH**

***Usmanova Elmira Tashmuxametovna***

*Xalqaro Nordic universiteti "Pedagogika" kafedrasi magistranti*

**Abstract:** Ushbu maqolada xalqaro pedagogik amaliyotda xalqaro baholash tadqiqotlarining milliy ta'lif tizimida samaradorlik hamda o'quvchilarning ta'limgagi muvaffaqiyatini ta'minlashdagi roli, o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishning tashkiliy jihatlari yuzasidan quyidagi tavsiyalar, PISA xalqaro baholash dasturi konsepsiyasida keltirilgan jarayonlar va o'quvchilarga qo'yilgan talablar, shuningdek tabiiy fanlarda qo'llaniladigan kontekstlar va ularga doir misollar bayon etilgan.

**Tayanch so'z va tushunchalar:** PISA, tabiiy-ilmiy savodxonlik, formativ baholash, summativ baholash, kontekst, 4K tamoyili, "XXI asr ko'nikmalari", kritik fikrlash, kollaboratsiya, kreativlik (ijodkorlik), kommunikatsiya.

Ta'larning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir.

Buning uchun kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari "XXI asr" ko'nikmalariga ega ishchilarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi.

Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda. O'quvchida kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Yuqoridagi talablar ta'lif tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy mamlakatlardagi kabi, ta'lif va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lif sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. PISA, TIMSS va PIRLS xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish maqsadida A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan "Stesting" loyihasi doirasida 100 dan ortiq trenajyor video yaratildi va "Stesting" platformasi ishga tushirildi. Bu platforma o'quvchilarning xalqaro baholash dasturlari doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan elektron tizim va video mahsulotlarni o'z ichiga olgan. Unga 1500 tadan ortiq test joylashtirilgan. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish, testlarni yechish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan mazkur elektron platforma sentyabr-oktyabr oylarida muayyan maktablarda tajriba-sinovdan o'tkazildi. Eng muhim jihatlardan biri

ushbu platformadan foydalanish mutlaqo bepul. Bugunga qadar ushbu platformada 2,6 milliondan ortiq o‘quvchi ro‘yxatdan o‘tgan va ularning diagnostik baholash natijalari tahlil qilingan.

Tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishning asosi bo‘lgan tabiiy fanlarning o‘qitilishi xorijiy davlatlar misolida qiyosiy tahlil qilinmaganligi, tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha dunyo bo‘ylab o‘qitish tartiblari va metodikalari haqida ilmiy – nazariy ma’lumotlar tahlili yetarli darajada o‘rganilmaganligi bilan belgilanadi.

Mavzuning maqsadi hozirgi kunda tabiiy fanlardan ham milliy o‘quv dasturi ishlab chiqish. Milliy o‘quv dasturi doirasida o‘quvchilarga endi nazariy bilim emas, hayotiy ko‘nikma va malaka berish ustida ish olib borish. Hozirgi kunda xalqaro baholash tadqiqot dasturlariga tayyorgarlik, erishilgan yutuq va kamchiliklarni aniqlash, xalqaro baholash dasturi natijalari asosida umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini baholash milliy tizimini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda maktab o‘quvchilarining keljakdagi xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik darajasini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida — Mamlakatimiz maktablarida tahsil olayotgan 15 yoshli o‘quvchilarning savodxonligini hamda bilimlarini amaliyatda qo‘llash qobiliyatini baholash jarayoni tanlandi. Tadqiqotda qo’llanilgan usullar miqdoriy, analitik, ilmiy, qyosiy usullar va adabiyotlar tahlilidan foydalanildi.

Mavzu bo‘yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili M.Oripova o‘z ilmiy maqolasida “tabiiy-ilmiy savodxonlik kuzatish va tajribalarga asoslangan xulosalar olish uchun ilmiy metodlar yordamida tekshirish va hal etilishida tabiiy-ilmiy bilimlarni ishlata olish qobiliyati, dolzarb muammolar haqida fikrlay olishi, shaxsiy, ijtimoiy, global muammolarga duch kelganda yechish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi, mushohada yuritish qobiliyati sinovdan o‘tkazilishi” deb ta’rif bergan.

Umuman olganda, o‘quv mashg‘ulotlarining samarali tashkil etilishi topshiriqlarning o‘quv maqsadlariga mos ravishda tanlanishi, didaktik jihatdan asoslanishi va ta’lim maqsadlariga yo‘naltiruvchi didaktik vosita sifatida tanlashi o‘qituvchining professional yondashuviga bog‘liq bo‘ladi.

Topshiriqlar davlat ta’lim standartida ko‘rsatilgan fanga oid va tabiiy-ilmiy savodxonliklarning shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiluvchi didaktik vosita vazifasini bajaradi. O‘qituvchi topshiriqlar orqali o‘quv jarayonini moslanuvchanligi va to‘liqligiga erishishi lozim.

### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tolipova J. Pedagogik kvalimetriya. – T.: TDPU bosmaxonasi, 2015. – 107 b.
2. Shernazarov I.E. Umumiyy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini xalqaro baholash dasturi PISA tadqiqotiga tayyorlashdagi vazifalar va ularning yechimlari / Konferentsiya materiallari, 38-43.

3. Ergasheva M.T. Funksional savodxonlikni baholashning dastlabki natijalari / Konferentsiya materiallari, 92-95.
4. Kuysinov O.A., Nosirov A., Abduraimov Sh., Sodikova A., Kutlimuratov K., Mamajonova K. New Uzbekistan – The value of Membership in the Continuous Education System. “International journal of special education” Scopus Journal. <https://www.internationaljournalofspecialeducation.com/submission/index.php/ijse/article/view/515> ISSN No:0827-3383 VOLUME 37, №3. – 2022.
5. Kivirauma J., Kari R. Excellence through special education? Lessons from the Finnish school reform. International review of education 53, 2007. – P. 283-302.
6. Breakspeare S. The policy impact of PISA: An exploration of the normative effects of international benchmarking in school system performance. 2012. – P. 12 (164).
7. Münch R. “Education under the regime of PISA & co.: Global standards and local traditions in conflict—The case of Germany”. Teachers College Record 116.9, 2014. – P. 1-16.